

Oriental Journal of Education



A LINGUOCULTURAL STUDY OF AGRICULTURAL PROVERBS IN THE KOREAN AND UZBEK LANGUAGES

Mahzuna Ramazonova

Assistant Lecturer

Zarmed University

ramazonovamahzuna@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: linguacultural studies, paremiology, proverb, agriculture, Korean language, Uzbek language, mentality, national culture.

Received: 15.01.26**Accepted:** 16.01.26**Published:** 17.01.26

Abstract: The article examines the issues of linguoculturological research of agricultural proverbs in Korean and Uzbek. Proverbs are analyzed as linguocultural units reflecting national mentality, cultural values, and collective experience. Through agricultural proverbs, cultural concepts such as land, labor, harvest, and nature are revealed. The paper outlines the theoretical foundations of the linguoculturological approach and identifies existing research gaps in this field.

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA DEHQONCHILIKKA OID MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI MASALALARI

Mahzuna Ramazonova

Assistant-o'qituvchi

Zarmed Universiteti

ramazonovamahzuna@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, paremiologiya, maqol, dehqonchilik, koreys tili, o'zbek tili, mentalitet, milliy madaniyat.

Annotatsiya: Maqolada koreys va o'zbek tillarida dehqonchilikka oid maqollarni lingvokulturologik tomondan o'rganish masalalari yoritiladi. Ushbu maqolada maqollar milliy madaniyat, xalq mentaliteti va qadriyatlar tizimining muhim ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Dehqonchilikka oid maqollarning lingvokulturologik tahlili orqali koreys va o'zbek xalqlarining agrar dunyoqarashi, yer va mehnatga munosabati ochib beriladi. Maqolada lingvokulturologiya nazariyasining asosiy tushunchalari, tadqiqot metodlari hamda ushbu

yo'nalishda mavjud ilmiy ishlarning holati tahlil qilinadi.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ПОСЛОВИЦ, СВЯЗАННЫХ С ЗЕМЛЕДЕЛИЕМ, В КОРЕЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Махзуна Рамазонова

Ассистент-преподаватель

Zarmed университет

ramazonovamahzuna@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лингвокультурология, паремиология, пословица, сельское хозяйство, корейский язык, узбекский язык, менталитет, национальная культура.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы лингвокультурологического исследования сельскохозяйственных пословиц в корейском и узбекском языках. Пословицы анализируются как лингвокультурные единицы, отражающие национальное сознание, менталитет и систему ценностей народа. Через сельскохозяйственные пословицы раскрываются культурные представления о земле, труде, урожае и природе. В статье определяются теоретические основы лингвокультурологического подхода и выявляются научные пробелы в данной области.

Kirish. Hozirgi kunda, maqollar bo'yicha qizg'in ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, maqollarning har taraflama jihatlarini o'rganish paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Maqollarni qiyosiy jihatlarini o'rganish orqali ularning lingvomadaniy jihatlariga to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi maqollarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo'lmish boshqa bir xalqning o'ziga yarasha madaniyati va o'ziga xos mentalitetini ko'rsatishga harakat qilamiz. Ushbu qismda o'zbek va koreys maqollarining lingvomadaniy jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, o'zbek va koreys tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalari bo'yicha ularga atroflicha yondashishiga harakat qilamiz.

Ma'lumki, til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, umuman xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Koreys tilshunos olimlaridan KimSonJeong biror xalqni tilini o'rganishda uning madaniyatini ham o'rganish muhim ekanligini aytadi. Uning ta'kidlashicha til va madaniyat bir-biriga bog'liq ravishda rivojlanib boradigan bir-biriga o'xshash sistemadir. U buni quyidagicha izohlaydi: “문화적 요소는 언어와 깊숙이 엮여 있어

형태적, 구조적으로 언어의 형태에 반영된다.[1. 대조언어학.허용/김선정.소통.Korea,2016. 18p]”(Madaniy manbalar til bilan chambarchas bog’liq bo’lib, shakliga ko’ra, tuzilishiga ko’ra tilning shakllanishiga ta’sir qiladi). Mashhur tilshunos olim Jong MiRan shuni ta’kidlab aytadiki, “언어의 어휘는 인류의 물리적, 사회적 분위기를 통해 만들어졌습니다”[2.정미란. 현대 국어 연구.2006.13p.] (tildagi so’z boyligi insoniyatning jismoniy va ijtimoiy atmosferasi orqali vujudga kelgan.) Va bu nazariya asosida tilni madaniyatning bir qismi sifatida keltirishimiz mumkin. Umuman, madaniy faktorlar misolida tilshunos KimGwan He ma’lum xalqqa va uning tarixiga tegishli bilimlar, an’ana va qadriyatlar, kundalik odatlar va boshqa madaniy ko’rsatkichlarni insoniyatning fundamental asoslari va ular orqali dunyoni anglash[3.김관해.국어 어휘론 개설. 서울,1993.45p.]ini tushuntirib o’tadi. Shuningdek, uning fikricha, har bir madaniyatning asosida yotuvchi til hech qachon madaniyatdan ayro o’rganilmasligi va insoniyat tildan madaniyatning har bir nuqtasini ifodalashda foydalanishini aytib o’tadi. KimGwan He tilshunos va folklorshunos olim sifatida madaniyatni til bilan bog’liqligida paremiologiya sohasini rolini alohida ta’kidlab o’tadi. Uning aytishicha, “언어가 전체 문화를 표현하듯이 의심할 여지 없이 paremiology 분야는 언어를 소유한 사람들의 문화를 매우 아름답고 깊이 표현할 수 있습니다. 이러한 상황은 언어와 문화의 혼합 분야, 즉 언어문화학으로 정당화될 수 있다. “[4 김관해.국어 어휘론 개설. 서울,1993.48p.] (til butun bir madaniyatni o’zida ifodalar ekan, shubhasiz, paremiologiya sohasi ham tilning egasi bo’lmish xalqning madaniyatini juda chiroyli va chuqur ifodalay oladi. Bunday holatni o’zaro til va madaniyatning qorishib ketgan sohasi ya’ni lingvokulturologiya asoslay oladi). Demak, xalq madaniyatini ko’rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kunda tilshunoslikda lingvokulturologik izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylanmoqda. Ko’plab izlanishlarning asosiy obyekti sifatida ishlanilyapti. Kim Gwan He maqollarni “문화의 보기” deb ataydi va bu orqali u maqollar butunlay xalqning madaniyatini ko’rsatuvchi omillar ekanligiga ishonadi. Har bir maqol, uning fikricha, xalqning turmush tarzini qisqa va lo’nda umuman olganda to’laligicha ifodalay oladigan ko’zgu deb hisoblaydi. U bu haqda o’z ishlaridan birida shunday deb o’tadi: “언어, 문화, 속담 사이의 상호작용을 기술한 후에 문화가 언어를 통해 구현되는 방식을 언급하는 것도 중요해 보인다. 각 문화에는 기본으로 정의될 수 있는 일련의 속담이 있으며, 어휘와 언어에 들어갈 때 "직접적인 문화적 보기"로 작용할 수 있습니다.” [5. 김관해.국어 어휘론 개설. 서울,1993.48p.]. Demak, xalqning tilida mavjud bo’lgan har bir so’z tilda ifodalanar ekan, ma’lum xalqning maqollari o’sha xalq tilida keltirilgan so’zlardan shu xalq vakillari tomonidan shu xalqning o’ziga xos xususiyatlari bilan, yasash usuli bilangina ifodalanadi. Ko’plab olimlar Kim He Jin. (1958), Choi Na Mi. (1958), Min Gun (1986), Bek San U.(1993) madaniyat va tilning bog’liqligi kabi masalalarga o’z ishlarida to’xtalib o’tganlar. Maqollarning lingvokulturologik sifatlariga to’xtalgan holda olimlardan Chong Mi Ran maqollarni

o'rganishda bevosita tilni va o'sha xalqning madaniyatini o'rganish bu tabiiy hol deb hisoblaydi. Tilda mavjud bo'lgan leksema o'sha xalqning turmush tarzidan ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, bu bevosita maqollarda ishtirok etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi.

Koreyscha 아니 펜 꿀떡에 연기 나라 maqolini o'zbek tiliga tarjima qildigan bo'lsak – Pechkasi yonmagan uyning mo'risidan tutun chiqmaydi- ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida “Bir balosi bo'lmasa shudgorda quyruq na qilur”yoki “Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi” maqoli orqali ifodalanadi. Koreyscha maqoldagi 꿀떡 so'zi o'zbekcha tarjimada “mo'ri” so'zini beradi. “Mo'ri” koreyslarda ham o'zbeklarda ham uylar tomiga o'rnatiluvchi uy jihozi hisoblanadi. O'zbek tilida bu so'zga nisbatan ekvivalent sifatida “tuynuk” so'zini keltirsak bo'ladi. Agar ikki xalqning milliy yashash madaniyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, har ikkisida ham yashash joylarida uy ichiga isitish uchun pechka o'rnatiladi va ichiga o'tin yoqiladi. O'tindan chiquvchi tutun aynan o'sha uy tomiga o'rnatilgan “mo'ri”orqali tashqariga chiqib ketadi. Demak, biror xalq hayotida mavjud va kundalik hayotda faol qo'llaniluvchi leksemalar tilda o'z qiyofasini yaratadi va xalqlarning milliy mentalitetini ko'rsatishda maqollarda ishtirok etmay qolmaydi. Agar maqollarning ma'no-mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, koreys xalqining turmush-tarzida 꿀떡 qanchalik joy egallagan ekanligini maqolda ifodalangan ma'nodan bilish mumkin. Agar o'zbekcha variantini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u o'zbek tilida quyidagicha: “Bir balosi bo'lmasa shudgorda quyruq na qilur”. Unda ishlatilgan “shudgor” “quyruq” kabi so'zlar o'zbek tilida uchraydigan so'zlardandir. O'zbek xalqining asosan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan xalq ekanligi, ular uchun dehqonchilik, ekin ekish, hosil olish kabi yumushlar muhim ekanligi o'zbek xalq maqollarida aks etgan. Dehqonchilik o'zbeklar uchun ro'z'gor yuritish, tirikchilik qilish uchun eng kerakli ish bo'lganligi tarixdan bizga ma'lum. Asosan o'zbek xalqi uchun dehqonchilik bilan shug'ullanish bu ularning kundalik hayotining bir qismidir. Shu sababli xalq bu so'zlardan hayotiy jarayonlarda foydalanadi va bu o'zbek xalq maqollarida o'z ifodasini topgan. Maqollarning lingvokulturologik xususiyatlariga to'xtalar ekanmiz, millatlarning o'ziga xos milliy xarakteri va mentaliteti haqida so'z ochmay ilojimiz yo'q, albatta. Chunki xalqning o'ziga xos madaniyati, tarixi va urf- odatlarini ixcham holatda yetkazib beruvchi xalq maqollari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o'rinda turadi. Ilmiy ishimizning ushbu qismida koreys va o'zbek tillaridagi ayrim maqollarning lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilgan holda, har ikkala xalqning o'ziga xos milliy urf-odatlarini, kundalik turmush tarzidagi o'ziga xos milliy xarakterning ifodalanishi ko'rsatib o'tamiz. Asosan, har ikki tildagi maqollarni tanqidiy tahlil qilish orqali ko'proq farqli tomonlarini o'rganib, o'zaro o'xshash tomonlarining umumiy jihatlarini ifodalashga harakat qilamiz.

Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Mashhur koreys tilshunos olimi

Chong Mi Ran aytganidek, “속담 모음은 생활 속 사람들의 모국어, 경험, 상식, 진리의 지혜 모음입니다”. [6.정미란. 현대 국어 연구.2006.19p.](maqollar to‘plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog‘lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati). Turli tillarning maqollariga to‘xtalar ekanmiz, ular o‘sha til egasi bo‘lmish xalqning tarixiy, ma’naviy va moddiy madaniyati ko‘zgusi ekaniga guvoh bo‘lamiz. Shu sababli, turli til maqollarini qiyosiy o‘rganish millatning o‘ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi, boshqacha qilib aytganda, o‘sha xalqning mentalitetini ko‘rsatadi. “Mentalitet” tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko‘p bo‘lmagan bo‘lsada, hozirda juda keng doirada qo‘llanilmoqda. Tor ma’noda mentalitet “fikrlash doirasi, dunyoqarashi” ma’nosini ifodalasa, keng ma’noda esa “xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri” tushuniladi. Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet – bu “xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma’naviy jabhalarida ham o‘z aksini topgan xarakteridir”. Shunday ekan, yuqorida aytib o‘tilganidek, bu “milliy xarakter” xalqning dini, siyosati, urf – odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o‘rni bilan ham chambarchas bog‘liq.

Koreys tili maqollaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, koreys xalqining turmush-tarzi haqida so‘z yuritib o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir. Dunyo millatlari orasida ushbu xalq vakillari mehnatkashligi bilan ajralib turadi. Bu jihat maqollarida ham o‘z aksini topadi.

O‘zbek xalqi qadimdan mehnatkash xalq sifatida e’tirof etilgan. Koreys xalqi ham qadimdan to hozirgi kunga qadar dehqonchilik sohasida ko‘pgina yutuqlarga erishib kelyapti. Shunga ko‘ra o‘zbek va koreys tillarida ko‘plab yig‘im-terim umumiy olganda dehqonchilikka oid maqollarni uchratishimiz mumkin. Ammo o‘zbek tilidagi shu sohaga oid maqollar keltirilganda doim ham o‘z ma’nosida qo‘llanavermaydi. Ya’ni, dehqonchilikka oid konsept qo‘llansada tub ma’no boshqacha bo‘lishi mumkin.

Masalan: Dehqon tarig‘idan kechsa ham, chumchuqlar chiqisholmaydi – variantlari: “Donxonada sichqon chiqishmas”.

O‘tmishda mazkur maqollarni janjalkash merosxo‘rlarga nisbatan “kinoya” tarzida qo‘llaganlar. Ilgari aksariyat hollarda shunday bo‘ladiki, davlatmand, mulkdor ota mol-mulkini o‘z hayotlik davrida o‘g‘il qizlariga meros tariqasida qoldirib, taqsimlab ketgan bo‘lsa ham, merosxo‘rlar o‘z ulushlariga qanoat qilmay, o‘zaro bitisholmay, bir-birlari bilan chiqisholmay, janjallashib, qozibozlik qilib yurardilar. Yuqoridagi maqollarni o‘g‘ri qaroqchilarga nisbatan ham qo‘llashgan. Chunki, ular ham talangan, o‘g‘irlangan o‘ljalarni o‘zaro taqsim qilganda bir-birlari bilan chiqisholmay, janjallashishar, xatto bir-birlarini o‘ldirar ham edilar

Hosiling kam bo‘lsa havodan ko‘rma- bu maqolning asl ma’nosi har qanday ekinning ham hosili ob-havoning qulay yoki noqulay kelishidan ko‘ra ko‘proq dehqonning qay darajada mehnat

qilishiga, ekinni parvarish etishiga, uning mahoratiga bog'liq. Mazkur maqol bilan ana shuni ta'kidlab: "O'z olmagan otga uzangi-bahona"; "O'yin bilmaganga uy torligi-bahona" degandek, hosiling kam bo'lsa, bunga ob-havo emas, bunga avvalo o'zing sababchisan. Agar o'zing qattiq turib kishlasang, ekinni "erkalatib" o'stirsang, mahorat ko'rsatsang, har qanday sharoitda ham yuqori hosil olishing mumkin. Bu maqol ko'p hollarda ko'chma ma'noda ya'ni o'zining no'noqligida boshqa birov yoki biror narsani ayblab ko'rsatganda ishlatiladi. [Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005. –508 b.] Va shu kabi ko'plab maqollarni misol keltirish mumkin.

Shuningdek o'z ma'nosida ishlatiladigan maqollar ham ko'plab uchraydi. Masalan: Dehqonchilik – chilik-chilik, bo'lmasa – quruqchilik : varianti-"Dehqonning qopi tik turmasa, beli bukiladi. Dehqonlar o'tmishda omadlari kelib, hosilga ega bo'lib qolsalar – biror tabiiy ofatga duchor bo'lib hollari voy bo'lardi.

Bug'doy o'rilgach, o'roqni zang bosadi. Ba'zi beparvo dehqon bug'doyini o'rib olgach, o'rog'ini yuvib, tozalab, bir chekkaga olib qo'ymaydi-da, kelasi mavsumgacha zang bostirib, ishga yaroqsiz qilib qo'yadi. Bu – maqolning to'g'ri ma'nosi, majoziy ma'nosi shunday: ba'zi odam biror ishini bitirib beradigan odamning atrofida ishi bitguncha girdikapalak bo'lib, yalinib yolvorib yuradi. Ishini bitirib olgach, u odamga qayrilib ham qaramaydi, mabodo ko'cha-kuyda ko'rib qolgudek bo'lsa, o'zini ko'rmaganga solib, chetga qarab o'tib ketaveradi. Yuqoridagi maqol ana shunday odamlarga qarata aytiladi.

Koreys tilida ham yuqorida keltirib o'tgan maqollarga o'xshash dehqonchilikka oid maqollarni son-sanoqsiz uchratishimiz mumkin. Masalan: 부지런한 농사꾼에게는 나쁜 땅이 없다. (Mehnatkash dehqon uchun yerning yomoni bo'lmaydi) ya'ni, dehqon agar mehnat qilsa, dangasalik qilmasa har qanday unumsiz yerni obod qilib, unga ekin ekib, yaxshi hosil olishi mumkin. Bu maqol o'zbek tilidagi "Qalovini topsang qor ham yonadi" maqoliga to'g'ri keladi. Shuningdek, 농사 지을 줄 모르는 농민이 땅 타발을 한다 maqolini oladigan bo'lsak, bu maqol o'zbek tiliga "Dehqonchilik qilishni bilmaydigan odam yerni bahona qiladi"deya tarjima qilinadi. Maqolning o'zbek tilidagi ekvivalenti sifatida "Dangasaning bahonasi ko'p" maqolini misol qilib keltirishimiz mumkin.

땀은 땀대로 흘리고 농사는 풀농사만 짓는다 maqolini o'zbek tiliga tarjima qiladigan bo'sak, "Ter oqishiniku uyoqqa qo'ying, dehqonchilikda faqat o't o'stiradi" degan ma'no kelib chiqadi. Ya'ni tajribasiz odam dehqonchilik qilsa biron foyda ololmay faqat ziyoniga ishlaydi degan ma'noni anglatadi. Bu maqolni o'zbek tilidagi "Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin" maqoli bilan ma'no jihatidan o'xshash deb ayta olamiz. Ya'ni, qanday ish qilishdan qat'iy nazar, o'zining ustasi qilgani yaxshi.

Bu kabi dehqonchilik haqidagi xalq maqollarini koreys tilida ko'plab uchratishimiz mumkin.

Xulosa. Maqollar bu xalqning madaniy merosidir. Ularda o'sha xalqning barcha o'y – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l – atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yodkorlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 대조언어학.허용/김선정.소통.Korea,2016. 18p.
2. 정미란. 현대 국어 연구.2006.13p.
3. 김관해.국어 어휘론 개설. 서울,1993.45p.
4. 김관해.국어 어휘론 개설. 서울,1993.48p.
5. 김관해.국어 어휘론 개설. 서울,1993.49p.
6. 정미란. 현대 국어 연구.2006.19p.
7. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005. – 508 b.